

**GIACOMO PUCCINING “TOSCA” OPERASIDAN “E LUCEVAN LE STELLE”
ARIYASI: YARATILISH TARIXI VA VOKAL-IJROCHILIGIDAGI AHAMIYATI.****Pirnazarov Jasurbek Muxammedalievich**

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali 2-bosqich talabasi.

tel: +998993697306 E-mail: jasurbekpirnazarov006@gmail.com**Abatbaeva Rano Allambergenovna**

Ilmiy rahbar.

Tel: +998905925154 E-mail: abatbaevarano35@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.21909145>**KIRISH**

Opera san’ati insonning ichki kechinmalarini musiqa, vokal va sahna harakati orqali yaxlit badiiy obrazga aylantirish imkonini beradigan murakkab san’at turidir. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida italyan opera san’atida qahramonlarning ruhiy holatini yanada tabiiy va ta’sirchan ifodalashga bo‘lgan intilish kuchayadi. Ushbu jarayonda Giacomo Puccini ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Giacomo Puccini italyan opera san’atining eng yirik namoyandalardan biri bo‘lib, uning ijodida vokal melodiyaning ifodaviyligi, orkestr va xonanda partiyalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda dramatik vaziyatning musiqiy vositalar orqali ochib berilishi muhim o‘rin tutadi. Kompozitorning “La bohème”, “Madama Butterfly”, “Turandot” va “Tosca” kabi operalari jahon opera repertuarining muhim qismiga aylangan. “Tosca” operasining yaratilishi 1896–1899-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Opera Luigi Illica va Giuseppe Giacosa librettosi asosida yaratilgan bo‘lib, uning dramaturgik manbasi fransuz dramaturgi Victorien Sardouning “La Tosca” dramasidir. Operaning birinchi namoyishi 1900-yil 14-yanvarda Rimdagi Teatro Costanzi teatrida bo‘lib o‘tgan. Premyerada Floria Tosca obrazini Erialea Darclee, Mario Cavaradossi obrazini Emilio De Marchi, Scarpia obrazini Eugenio Giraldoni ijro etgan, spektaklga Leopoldo Mugnone dirijyorlik qilgan.

Operaning III aktida ijro etiladigan “E lucevan le stelle” ariyasi Cavaradossi obrazining eng muhim vokal lavhalaridan biridir. Ariya qahramonning o‘lim oldidagi ruhiy holatini ochib beradi. Cavaradossi o‘zining sevikli Tosca bilan o‘tkazgan baxtli lahzalarini eslar ekan, o‘tmishdagi muhabbat xotiralari va hozirgi fojiali vaziyat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni boshdan kechiradi. Mazkur ariyani o‘rganishning dolzarbligi shundaki, unda xonadandan faqat texnik jihatdan to‘g‘ri kuylash emas, balki murakkab psixologik obrazni yaratish, matn va musiqaning mazmunini uyg‘unlashtirish ham talab etiladi. Tadqiqotda tarixiy-biografik, musiqiy-nazariy, vokal-ijrochilik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asarning yaratilish tarixi va ilk ijrosi bo‘yicha Puccini ijodiga bag‘ishlangan rasmiy katalog ma’lumotlari, Emilio De Marchi haqidagi biografik manbalar hamda “Tosca” operasining nota materiali o‘rganildi. Musiqiy tahlilda “E lucevan le stelle” ariyasining operadagi o‘rni, uning dramaturgik vazifasi va vokal partiyasining ijrochiga qo‘yadigan talablari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, turli davrlardagi mashhur tenorlar ijrosiga oid materiallardan foydalanilib, ariyaning talqin imkoniyatlari haqida fikr yuritildi. Ariya “Tosca” operasining III aktidagi №25 lavha sifatida qayd etilgan. “Tosca” operasida “E lucevan le stelle” ariyasining o‘rni “E lucevan le stelle” operaning III aktida, Cavaradossi qamoqda o‘lim jazosini kutayotgan vaqtda yangraydi. Qahramonning oldida hayotining so‘nggi daqiqalari qolgan. Shu vaziyatda u Tosca bilan o‘tkazgan baxtli vaqtlarini eslaydi. Ariyaning matni ham aynan xotira va sog‘inch ruhiga qurilgan. Cavaradossi tun, yulduzlar, tabiatning xushbo‘y hidi va Tosca bilan uchrashgan lahzalarini yodga oladi.

Metropolitan Opera ta'lim materialida ham ushbu sahnada Cavaradossining yozishni to'xtatib, seviklisi haqidagi xotiralarga berilishi va ariyaning aynan shu ichki kechinmadan kelib chiqishi ko'rsatiladi. Shu sababli ariyaning badiiy mazmunini faqat "sevgi qo'shig'i" sifatida tushunish yetarli emas. Unda sevgi bilan bir qatorda ayriliq, qo'rquv, o'limni anglash va o'tgan baxtni qayta his qilish kabi qarama-qarshi kechinmalar mavjud. Puccini mazkur ruhiy holatni musiqiy material orqali bosqichma-bosqich ochib boradi. Ariya boshidagi sokin kayfiyat qahramonning xotiraga berilgan holatini ifodalasa, keyingi rivojlanishlarda hissiy kuchlanish ortib boradi. Ariyaning ilk ijrochisi **Emilio De Marchi** "E lucevan le stelle" ariyasining ijrochilik tarixini o'rganishda Emilio De Marchi nomi alohida ahamiyatga ega. Chunki u Mario Cavaradossi obrazining birinchi ijrochisi bo'lgan. De Marchi 1900-yil 14-yanvarda Rimdagi Teatro Costanzi sahnasida bo'lib o'tgan "Tosca"ning jahon premyerasida ushbu rolni ijro etgan.

Emilio De Marchi o'z davrida yetarlicha tajribaga ega bo'lgan tenor sifatida tanilgan.

Treccani biografik ensiklopediyasida uning "Tosca"dagi Cavaradossi roli ijrochisi sifatidagi muvaffaqiyati alohida qayd etiladi. Manbada De Marchining ovoz kuchi, diksiya aniqligi va sahnaviy ifodasi haqida o'sha davr tanqidchilarining ijobiy fikrlari keltirilgan. De Marchining ilk ijrochi sifatidagi ahamiyati shundaki, u Cavaradossi obrazini Puccini asarining dastlabki sahnaviy talqinida yaratgan. Keyingi yillarda esa ushbu rol Enrico Caruso, Giuseppe Di Stefano, Franco Corelli, Luciano Pavarotti va boshqa mashhur tenorlar repertuaridan joy oldi.

Shunday qilib, ariyaning ijrochilik tarixini shartli ravishda ikki yo'nalishda ko'rish mumkin: birinchisi — Puccini davridagi dastlabki ijro an'anasi; ikkinchisi — keyingi avlod tenorlarining o'ziga xos talqinlari.

Musiqiy-obrazli tahlil "E lucevan le stelle" ariyasining asosiy kuchi uning qisqa vaqt ichida qahramonning katta ruhiy holatini ochib bera olishidadir. Ariya boshidanoq tinglovchini Cavaradossining xotiralar dunyosiga olib kiradi. Musiqiy rivojlanishda vokal chiziq va orkestr partiyasi o'zaro chambarchas bog'langan. Bu jihat Puccini uslubining muhim xususiyatlaridan biridir. Xonanda orkestrni faqat jo'rnavoz sifatida emas, balki qahramonning ruhiy holatini shakllantiruvchi badiiy muhit sifatida qabul qilishi lozim. Ariyaning melodik rivojida tabiiy nutq ohangi bilan kengroq vokal frazalar uyg'unlashadi. Shu sababli ijrochi musiqiy jummalarni alohida tovushlar yig'indisi sifatida emas, balki yagona fikr va hissiyot sifatida shakllantirishi kerak. Bu asarda ayniqsa uchta asosiy jihatni ajratish mumkin:

1. Xotira — Cavaradossining Tosca bilan o'tkazgan baxtli kunlarini eslashi;
2. Muhabbat — qahramonning Tosca bilan bo'lgan munosabatini chuqur his qilishi;
3. Fojia — o'lim yaqinligini anglash va hayot bilan xayrlashish.

Ushbu uch jihat ijrochining ovoz temбри, dinamika va frazirovkasi orqali bir-biridan farqlanishi kerak. Vokal-ijrochilik xususiyatlari "E lucevan le stelle"ni ijro etishda eng muhim masalalardan biri — nafasni to'g'ri tashkil qilish. Ariyada musiqiy jumlar mazmunan bir-biriga bog'langanligi sababli xonanda nafasni tasodifiy emas, balki fraza tuzilishidan kelib chiqib rejalashtirishi kerak. Nafasning to'g'ri taqsimlanishi xonandaga uzoq frazalarni uzluksiz va tabiiy ijro etish imkonini beradi. Shu bilan birga, nafasni haddan tashqari kuch bilan ishlatish ovozning tabiiyligini buzishi mumkin. Shuning uchun ovoz tayanchi va nafas oqimi o'rtasidagi muvozanat saqlanishi lozim.

Ikkinchi muhim jihat — legato. Puccini melodiya-sida vokal chiziqning uzluksizligi katta ahamiyatga ega. Xonanda har bir tovushni alohida "ko'rsatishga" urinmasdan, tovushlar orasidagi bog'liqlikni saqlashi kerak. Ayniqsa, ariyaning lirik xarakterdagi qismlarida legato qahramonning ichki kechinmasini tabiiy yetkazishga yordam beradi.

Frazirovka ham asarning mazmunini ochishda asosiy vositalardan biridir. Matndagi muhim soʻz va iboralar musiqiy jihatdan ajratib koʻrsatilishi, biroq bu urgʻu sunʻiy yoki haddan tashqari boʻlmasligi kerak. Dinamika masalasida ham ijrochidan katta nazorat talab etiladi.

Ariyaning barcha qismlarini bir xil kuch bilan kuylash Cavaradossi obrazining ruhiy oʻzgarishlarini yoʻqqa chiqaradi. Aksincha, pianissimo, mezza voce, crescendo va boshqa dinamik vositalarning maqsadli qoʻllanilishi obrazni yanada taʼsirchan qiladi. Metropolitan Opera arxivlaridagi ijro sharhlarida “E lucevan le stelle”ni turli tenorlar talqinidagi farqlar ham koʻrinadi. Masalan, Luciano Pavarotti ijrosida ariyaning chiziqli va nafis kuylanishi alohida qayd etilgan; boshqa bir ijro sharhida esa tenorning uzoq pianissimo frazalarni sezgir shakllantirgani taʼkidlangan. Bu misollar ariyaning bitta “toʻgʻri” talqini mavjud emasligini koʻrsatadi. Biroq barcha ijrolarda musiqiy matnga hurmat, vokal nazorat va dramatik mazmunni ochish asosiy shart boʻlib qoladi. Italyancha talaffuz va diksiya Italian opera repertuarida vokal texnika bilan bir qatorda soʻzning tushunarli yetkazilishi ham katta ahamiyatga ega. “E lucevan le stelle” ariyasida xonanda italyan tilining unli va undosh tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilishi, ayni paytda legatoni buzmasligi kerak. Diksiya haddan tashqari qattiq boʻlsa, vokal chiziqlarning silliqligi yoʻqolishi mumkin. Aksincha, soʻzlarni yetarlicha aniq aytmalik ariyaning mazmuniy taʼsirini pasaytiradi. Shu sababli xonanda talaffuz va vokal rezonans oʻrtasidagi muvozanatni topishi lozim. Cavaradossi obrazini yaratishda aktyorlik ifodasi Ariyani muvaffaqiyatli ijro etish uchun xonanda Cavaradossining vaziyatini ichki jihatdan tushunishi zarur. U shunchaki “sevgi haqida kuylayotgan” inson emas. U oʻlimni kutayotgan va shu sababli hayotidagi eng baxtli xotiralarni qayta boshdan kechirayotgan qahramondir. Shu nuqtai nazardan, ariyaning boshlanishini haddan tashqari dramatik va baland ovoz bilan boshlash maqsadga muvofiq emas. Qahramon avvalo xotiraga berilgan. Ijrochi bu holatni ovozning yumshoq tembri, ehtiyotkor frazirovka va nazoratlangan dinamika orqali ifodalashi mumkin. Keyinchalik hissiy kuchlanish ortgan sari ovozning tembri va dinamik imkoniyatlari kengayadi. Demak, ariyaning dramatik choʻqqisi boshidanoq berib qoʻyilmaydi, balki musiqiy rivojlanish davomida shakllantiriladi.

MUHOKAMA

“E lucevan le stelle” ariyasini akademik xonandalik nuqtai nazaridan oʻrganish shuni koʻrsatadiki, asarning ijrochilik murakkabligi faqat diapazon yoki baland notalarda emas. Asosiy qiyinchilik — vokal texnika, musiqiy frazirovka va dramatik obrazni yagona ijodiy tizimga birlashtirish. Ariyani tayyorlash jarayonida avvalo nota matnini aniq oʻzlashtirish, ritm va intonatsiyani mustahkamlash, keyin esa soʻz va musiqa mazmunini chuqur anglash maqsadga muvofiq. Shundan keyingina individual ijrochilik talqini ustida ishlash samarali boʻladi.

Menimcha, ushbu asarni ijro etishda eng muhim jihatlardan biri — ovoz kuchini namoyish qilishdan koʻra, qahramonning ichki holatini tinglovchiga yetkazish. Chunki Cavaradossi obrazining taʼsir kuchi faqat kuchli ovozda emas, balki uning zaifligi, sogʻinchi va umidsizligini tabiiy ifodalashda namoyon boʻladi. Ariyani oʻrganayotgan xonanda oʻz ustida ishlash jarayonida quyidagi jihatlarga alohida eʼtibor qaratishi mumkin: nafasni fraza asosida rejalashtirish, legatoni uzluksiz saqlash, italyancha talaffuzni takomillashtirish, dinamik oʻzgarishlarni mazmun bilan bogʻlash, ovoz tembridan obraz yaratishda foydalanish, yuqori registrda erkinlikni saqlash, orkestr bilan musiqiy hamohanglikni taʼminlash, sahnaviy harakatni vokal ijro bilan uygʻunlashtirish. Ariyaning keyingi ijrochilik tarixiga qaraganda, uning talqini turli tenorlar ijrosida turlicha shakllangan. Metropolitan Opera arxivlari Enrico Caruso, Giuseppe Di Stefano, Luciano Pavarotti va boshqa ijrochilarning Cavaradossi obrazidagi chiqishlarini hujjatlashtiradi.

Masalan, Di Stefano ijrosida frazirovka va ovozning yumshoqligi, Pavarotti talqinida esa vokal chiziqning nafisligi alohida ta’kidlangan. Bu ijrolarni o’rganish yosh xonandaga bitta asarning turli talqinlarini eshitish, ularning o’xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda o’zining individual ijrochilik qarashini shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Giacomo Puccininining “E lucevan le stelle” ariyasi “Tosca” operasining eng yorqin vokal lavhalaridan biri bo‘lib, unda insonning sevgi, sog‘inch, ayriliq va o‘lim oldidagi ruhiy kechinmalari mujassamlangan. Tadqiqot davomida ariyaning tarixiy va ijrochilik jihatlarini o‘rganildi. “Tosca” operasining 1900-yil 14-yanvarda Rimdagi Teatro Costanzi sahnasida ilk bor namoyish etilgani hamda Mario Cavaradossi obrazini Emilio De Marchi ijro etgani aniqlandi.

Ariyaning vokal-ijrochilik tahlili shuni ko'rsatadiki, uni muvaffaqiyatli ijro etish uchun xonandadan nafasni to'g'ri boshqarish, legato, frazirovka, dinamik nazorat, italyancha diksiya va sahnaviy ifodaning yuqori darajasi talab etiladi. Biroq ushbu texnik vositalarning barchasi yakuniy maqsad — Cavaradossi obrazining ichki kechinmalarini ishonarli yetkazishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, ariyaning turli mashhur tenorlar tomonidan ijro etilgan talqinlarini o'rganish yosh xonandaga ijrochilik uslubini rivojlantirishda katta yordam beradi. Har bir xonanda o'zining ovoz imkoniyati, musiqiy didi va aktyorlik qarashidan kelib chiqib asarga individual yondashadi. Shu sababli "E lucevan le stelle" ariasini akademik xonandalik ta'limida o'rganish nafaqat Puccini ijodini anglash, balki yosh xonandaning vokal-texnik va badiiy-ijrochilik imkoniyatlarini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Jakomo Puchchini operasining 3-aktidan Mario Kavaradossining "E lucevan le stelle" ("Osmonda yulduzlar yonardi...") nomli ikkinchi ariyasi - bu Sant-Anjelo qal'asi tomida tong otishini va o'z qatlini kutayotgan mahkum san'atkorning o'tkir lirik monologidir. Musiqiy-dramaturgik xususiyatlari Tonallik va rang-baranglik: Asar qat'iy va g'amgin si-minorda yozilgan. U tonggi sovuq soat va chuqur yolg'izlik muhitini aks ettiruvchi yolg'iz, ingrayotgan klarnet solosi bilan boshlanadi. Shakl: Uch qismli tuzilma bo'lib, unda melanxolik xotira umidsizlikning hissiy portlashi bilan almashadi, so'ngra achchiq sog'inchda so'nadi. Verizm uslubi¹: Musiqa italyan verizmi estetikasiga xos bo'lgan o'ta samimiylik, so'zlashuv ohanglari va ochiq drammatizmni o'zida mujassam etgan.

Перевод А. Машистова

Дж. ПУЧЧИНИ
G. RUCCINI

Andante lento appassionato molto

нар *p dolcissimo, vagamente*



Badiiy obraz va matn his-tuyg'ular kontrasti: Kavaradossi muhabbatning shirin lahzalarini, yerning xushbo'y hidlarini, Sog'inch quchog'ini eslaydi.

¹ <https://www.google.com/> Verizm (italyancha *verismo*, *vero* — rost, haqiqiy) — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Italiya adabiyoti, musiqasi hamda tasviriy san’atida yuzaga kelgan realistik yo’nalishdir. Bu oqim hayotni hech qanday bezaksiz, boricha va haqqoniy aks ettirishni maqsad qilgan

Psixologizm: Birinchi dekorativ ariyadan ("Recondita armonia") farqli o'laroq, bu yerda qahramon o'z qalbini birinchi shaxs fe'llari va haqiqiy insoniy og'riq orqali to'liq ochib beradi.

Ariyaning musiqiy tuzilishi, melodik rivoji va orkestr jo'rliigi Cavaradossi obrazining ichki ruhiy kechinmalarini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois uni muvaffaqiyatli ijro etish xonandadan yuksak vokal texnika bilan bir qatorda obrazning psixologik mohiyatini anglash va sahnada ishonarli talqin etishni ham talab qiladi. Tonalligi: Si minor (h-moll), tovushga chuqur ma'yuslik, g'amginlik va fojiaiviylik baxsh etadi. Sur'ati va xarakteri: Andantino mosso. Kuy intim, bosiq ingrashdan boshlanib, umidsizlikning ochiq hissiy nidosiga aylanadi. Melodika: Inson yig'isi va bo'g'iq yig'i kabi keng, sekin pastga va yuqoriga ko'tariladigan ohanglarga asoslanadi. Sahnada va vokal ahamiyati. Qahramon obrazi: I aktdan farqli o'laroq (uning "Recondita armonia" ariyasi mavhumroq), bu yerda Kavaradossining haqiqiy, nozik va chuqur shaxsiyati namoyon bo'ladi. Kulminatsiya: Xushbo'y sarvlar va bo'salar haqidagi lirik xotiralardan o'limning muqarrarligini keskin anglashga o'tish: "O dolcezza, o languide carezze..." ("O, shirin bo'salar, xumor erkalashlar..."). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Giacomo Puccinining **"E lucevan le stelle"** ariyasi nafaqat **"Tosca"** operasining dramatik cho'qqilaridan biri, balki akademik xonandalik repertuaridagi eng murakkab va badiiy jihatdan yuksak vokal asarlardan biri hisoblanadi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, ariyani ijro etishda nafasni to'g'ri boshqarish, legatoni uzluksiz saqlash, frazirovkani mazmun asosida shakllantirish, dinamik vositalardan maqsadli foydalanish hamda italyancha diksiya me'yorlariga rioya qilish ijrochilik mahoratini belgilovchi asosiy omillardir. Mazkur elementlarning uyg'unligi Cavaradossining sevgi, sog'inch, umidsizlik va o'lim oldidagi ruhiy holatini tinglovchiga tabiiy va ta'sirchan yetkazish imkonini beradi. Shuningdek, Emilio De Marchidan boshlab Enrico Caruso, Giuseppe Di Stefano, Franco Corelli va Luciano Pavarotti kabi mashhur tenorlarning ijro an'analari tahlili ushbu ariyaning turli badiiy talqinlarga boy ekanligini ko'rsatadi. Bu esa yosh xonandalarga turli ijrochilik maktablarini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish hamda o'z individual ijrochilik uslubini shakllantirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, **"E lucevan le stelle"** ariyasini akademik xonandalik ta'limi jarayonida chuqur o'rganish bo'lajak opera xonandalarining vokal-texnik tayyorgarligini, musiqiy tafakkurini, sahnaviy mahoratini va badiiy talqin ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida vokal ijrochilik fanlarini o'qitish, Puccini ijodini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish hamda opera repertuarini o'zlashtirish jarayonida metodik manba sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abbate, C., Parker, R. *A History of Opera*. New York: W.W. Norton, 2012.
2. Bernac, P. *The Interpretation of French Song*. London: Kahn & Averill, 1978.
3. Hines, J. *Great Singers on Great Singing*. New York: Doubleday, 1982.
4. Pirnazarov Jasurbek Muxamedaliyevich "O'zbek opera k'rkem 'onerinde lirik-dramatikaliq dawislar" New Renaissance International scientific journal.-2026.-vol.3, Issue 7.-B.123-126.
5. Puccini, S., Weaver, W. (Ed.). *The Puccini Companion*. New York: W.W. Norton, 1994.
6. Sadie, S. (Ed.). *The New Grove Dictionary of Opera*. London: Macmillan, 1992.
7. Budden, J. *Puccini: His Life and Works*. Oxford: Oxford University Press, 2002.
8. Osborne, C. *The Complete Operas of Puccini*. New York: Da Capo Press, 1981.